



## “ROBINDRANATH THOKUR HIKOYALARIDA XOTIN- QIZLARGA MUNOSABAT MASALALARINING YORITILISHI”

Ixtiyor Ermatov

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,

Guliston davlat universiteti,

ermatov.ixtiyor@mail.ru

Alisher O‘razov

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi,

orazovalisher96@gmail.com

Ma‘rufjon Qambarov

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

maribjon\_kambarov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10800253>

### ARTICLE INFO

Received: 06th March 2024

Accepted: 07th March 2024

Published: 09th March 2024

### KEYWORDS

*Robindranath Thokur, hind xalqi, adabiyot, hikoya, urf-odat, xotin-qizlar obrazi, qahramon.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada hind xalqining atoqli adibi Robindranath Thokurning hikoyalari haqida so‘z boradi. Uning hikoyalaridagi mavzular va obrazlarga e‘tibor qaratilgan. Xususan, adib ijodidagi xotin-qizlar obrazi va ularga munosabat masalalari yoritiladi. O‘zbek adiblari ijodidagi ayrim obrazlar Robindranath Thokur hikoyalaridagi ayrim obrazlar bilan qiyoslanadi.*

Hind adabiyoti haqida gap ketganda “Mahabxarata”, “Ramayana”, “Kalila va Dimna”, “Panchatantra” kabi butun dunyoga mashhur asarlar bilan bir qatorda hind xalqining buyuk shoiri, yozuvchi, bastakor va taniqli jamoat arbobi, xalqaro Nobel mukofotining sohibi Robindranath Thokur nomi ham tilga olinadi.

1861-yili 7-mayda Kalkutta shahrida dunyoga kelgan Robindranath Thokur o‘zining 80 yillik umri davomida hind xalqi madaniyati va adabiyotida o‘ziga xos va mos bo‘lgan o‘rinni egallaydi. Robindranath Thokur hikoyalarida hind xalqi hayotida uchraydigan juda ko‘plab ijtimoiy, axloqiy, hind urf-odatlar bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Ularda inson tabiatidagi munofiqlik, qo‘rqoqlik, zolimlik, baxillik, xasislik, ta‘magirlik kabi illatlarga, jamiyatdagi nobop urf-odatlar, zo‘ravonlik, adolatsizlik, xalq orasidagi azaliy toifaviy bo‘linishlarga qarshi nafrati ochiq-oydin ifodalangan bo‘lsa, oddiy, sodda, sofdil odamlarga, ularning tashvish va muammolariga hamdardlik, achinish, xayrixohlik tuyg‘ulari sezilib turadi.

Robindranath Thokurning “Hisob-kitob”, “Moxamayya”, “Daftarcha”, “Shubxa”, “Sudya”, “Opa” hikoyalarida urf-odatlar bog‘liq xurofot qurbonlari – xotin-qizlarning fojiali qismati tasvirlangan.

1891-yilda yozilgan “Hisob-kitob” hikoyasida Hindiston maishiy hayotida pul hukmronligini qalin puli urf-odati misolida ochib beradi. Hikoyada ikki xil toifadagi ikki oila – Ramshundor Mitro va raybahadurning quda-andachiligi voqealari tasvirlangan.

Hikoyada Ramshundor sevimli qizi Nirupomani so‘nggi vaqtlarda moddiy ahvoli og‘irlashib qolgan Raybahadurning yolg‘iz o‘g‘liga o‘n ming rupiya qalin puli evaziga turmushga beradi. Qizini nihoyatda yaxshi ko‘radigan Ramshundor qalin pulini to‘lash uchun juda ko‘p harak

at qiladi: sotadiganini sotadi, sotilmaydiganini garovga qo'yadi, katta foyda berish sharti bilan qarz olmoqchi bo'ladi, hatto to'rt o'g'li bilan yashab turgan uyini ham sotmoqchi ham bo'ladi. Ammo baribir qalin pulini o'z vaqtida to'liq to'lashga qurbi yetmaydi. O'zga oilaga kelin bo'lib tushgan, qalin puli odatining qurboni - Nirupomaning ahvoli havas qilgulik holatda emas edi. Qaynota va qaynonasining haqoratlari, xo'rlashlari, undan tashqari ota-onasi bilan ko'rishishga qo'yilgan taqiqlar – barchasi Nirupoma va otasi Ramshundorning ruhiy ahvolini og'irlashtirar edi. Natijada Nirupomaning ahvoli kundan kunga og'irlashib olamdan o'tadi.

Achinarli tomoni shundaki, hayotligida qaynota va qaynonasidan zarracha izzat ko'rmagan Nirupomaning dafn marosimi juda serhashamlik, dabdaba bilan o'tib Raybahadurning hotamtoyligi, shon-shuhrati hamma yoqqa ovoza bo'ladi.

Hikoya so'ngida Raybahadur va uning xotini o'g'lini ikkinchi marta uylantirish uchun qiz topib, yigirma ming rupiya qalin puli talab qilishadi. Yana pulni to'ydan oldin to'lashni shart ham qilishadi.

Nirupomaning turmush o'rtog'i hikoyada deyarli qatnashmaydi. Unga oid ikki jumla orqali kim ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

"Men bu yerga savdolashgani kelganim yo'q. Uylanaman deb keldimmi, vassalom, uylanaman!" Bu jumla to'y kuni qalin mojarosi bo'layotgan paytda aytilgan. Bunda ko'rinib turibdiki, Raybahadurning o'g'li ko'p ham eski urf-odatlariga qaram emas. Kuyov sudya muovini lavozimiga ko'tarilib, boshqa yerga jo'nab ketganidan keyin ota-onasiga shunday xat jo'natadi: "Men yangi joyga o'rnashdim. Tezlik bilan rafiqamni oldimga yuboringlar!" [Robindranath Thokur. "Taskin topgan rashk", Toshkent – "O'zbekiston", 2012-y.227-233-b.] Ammo u bu paytda Nirupoma bu olamni tark etganidan bexabar edi.

Robindranath Thokurning ko'p asarlarida xotin-qizlarning dilbar obrazlarini ko'ramiz. Yozuvchi bularni hamisha muhabbat va zo'r xayrixohlik bilan tasvir etib, o'quvchining diqqatini hind jamiyatida xotinlar ahvoliga, ularning fojiali taqdiriga jalb etadi. Bunga "Daftarcha" hikoyasidagi Uma, "Shubxa" hikoyasidagi Shubxashini, "Sudya" hikoyasidagi Kxiroda – Xemshoshi - Binodchandra, "Opa" hikoyasidagi Shoshikola obrazlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Robindranath Thokurning hikoyalarida qalamga olingan qizlarni erta turmushga berish, to'y bilan bog'liq urf-odatlar, qaynona – kelin munosabatlari, savodsizlik, xurofotga berilgan kishilarning nobop rasm-rusumlarga ko'r-ko'rona berilishi kabi muammolar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, desak xato bo'lmaydi. Bu holatlar bugungi o'zbek jamiyatida ham gender tenglikni ta'minlash, ayollarga bo'lgan munosabatni yaxshilash uchun kurashilmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Xudoyqulova, S., & Dehqonova, L. (2021). ABDULLA QODIRIYNING SO 'Z QO 'LLASH MAHORATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 589-595.
2. Ерматов, И., & Дехконова, Л. (2021). Об аффиксах, заимствованных из таджикско-персидского в узбекский язык. *Общество и инновации*, 2(2/S), 462-469.
3. Abdullayevna, D. L. (2024). Arab yozuvidagi harflarning she'riyatdagi jilosi. *Journal of Universal Science Research*, 2(2), 25-28.

4. Dexkanova, L. (2023). ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING O 'ZBEK TILIDA QO 'LLANILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 235-238.
5. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Linguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 688-692.
6. Туьчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
7. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.
8. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогики*, (7 (39)), 77-78.
9. Тўйчиева, З. (2023). АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ "САРОБ" РОМАНИДА ИБОРАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 304-307.
10. Kholbekova, M., & Tuychiyeva, Z. Articles and expressions in Hamid Olimjon's works. In *Current issues of Uzbek linguistics. Republican scientific-theoretical conference materials (Vol. 3)*.
11. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE " CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. *NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN*, 1(4).
12. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.
13. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
14. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
15. Akhrorov, A. A. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLK PROVERBS IN THE UPBRINGING OF A PERFECT PERSON. *Theoretical & Applied Science*, (1), 42-44.
16. Akbarovich, A. A. (2023). МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МА'NONING NAMOYON VO 'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 163-166.
17. Эрматов, И. Р., & Турдикулова, К. (2022). "ТАП БЎЛАКЛАРИ" МАҚОМИНИНГ БЕЛГИЛАНИШМЕЗОНЛАРИ ҲАҚИДА. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 190-193.
18. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
19. Эрматов, И. (2022). ЛЕКСИК-ФРАЗЕОЛОГИК ТИЗИМДА ЭКВОНИМИК МУНОСАБАТЛАР. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 11-17.
20. Эрматов, И. (2022). ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ГИПОНИМИЯ ВА ЭКВОНИМИЯ ҲОДИСАЛАРИНИНГ КЕСИШУВИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 173-178.
21. Ermatov, I. (2022). Hozirgi ozbek adabiy tili (Morfemika, so 'z yasalishi, morfonologiya). *Scienceweb academic papers collection*.